

# KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№19 (781), 2024-yil 15-oktobr

[facebook.com/nkmkofficial](https://facebook.com/nkmkofficial)[t.me/ngmkofficial](https://t.me/ngmkofficial)[instagram.com/nkmkofficial](https://instagram.com/nkmkofficial)[www.ngmk.uz](https://www.ngmk.uz)

## Dolzarb mavzu

# TABIATNI ASRASH

faqt ekologlar emas, barchaning ishi

Fan-texnika taraqqiyoti bashariyatning ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiatning yangi, o'rganilmagan boyliklarini izlab topishga, ularni o'zlashtirish imkoniyatlarni tadqiq etishga va tabiiy boyliklardan keng miqyosda foydalanishga imkoniyat yaratdi. Shu bilan bir qatorda, sanoat korxonalaridagi barcha jarayonlarning texnikalashgani, xalq xo'jaligining turli sohalarida kimyoviy moddalarning ishlatalishi, avtomobil transportining tez rivoji ko'p miqdorda zaharli chiqindilarning paydo bo'lishiga hamda atrof-muhitga tashlanishiga olib keldi.

Natijada, zararli chiqindi moddalar atmosfera havosi, suv havzalarini, tuproq yuzasida to'planib, ularning kuchli darajada ifloslanishiga, tirk organizmlarning tashqi muhit bilan munosabatlarining buzilishiga, inson salomatligiga jiddiy salbiy ta'sir etishiga olib kelmoqda. Zero, bu muammolar o'zining insoniyatga keltirishi mumkin bo'lgan yomon oqibatlari bo'yicha yadro halokatidan kam emas.

### EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH YO'LIDA

Navoiy kon-metallurgiya kombinasiya ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar o'zining ijobji samarasini bermoda. Xususan, yirik sanoat korxonasi atmosfera havosini, suv-er resurslarini asrash, chiqindilarni boshqarish va bioxilma-xillikni muhofaza qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgani tahlisiga sazovor ishdir.

Astrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan talab va qoidalari buzilishlarini aniqlash, oldini olish, ularni bartaraf qilishda yanada samarali natijalarga erishishga qaratilgan davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim sanaladi. Bu borada yaxlit bir tizim shakllangan.

bo'lib, unda atrof-muhitning hozirgi holati, mavjud global tahdidlar va mintaqaviy ekologik muammolarga oqilona yechim topishda yangicha yondashuv talab etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun Barqaror rivojanish maqsadlarini samarali amalga oshirishda iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyot va atrof-muhit muhofazasi omillari muhim o'rinni tutishi belgilab berilgan edi.

Kombinatning ishlab chiqarish korxonalarida ifloslantruvchi moddalarni ushlab olovchisi chang-gaz tozalash uskunalarini mavjud. Joriy yilda bunday uskunalaridan yana 7 tasi o'nataldi. Navoiy mashinasozlik zavodida chang-gaz uskunalarini modernizatsiya qilindi, qo'shimcha yana ikki dona samaradorligi 99 foiz bo'lgan chang-gaz tozalash uskunalarini o'nataldi. Shuningdek, 3-gidrometallurgiya zavodining sexlarda 8 dona chang-gaz uskunalarini modernizatsiya qilindi. Bu esa atmosfera havosiga tashlanadigan ifloslantruvchi moddalarning kamayishiga va ekologik holatning yaxshilanishiga olib keldi. Barcha konlarda muntazam ravishda chang bostirish ishlari va chiqindil omborlarida suv bilan namlatish ishlari olib borilib, atmosferaga chang ko'tarilishining oldi olinmoqda.

Astrof-muhitga ta'sir xavfi yuqori bo'lgan korxonalarining atmosfera havosini ifloslantrish manbalardan munular olish va tahlil qilish bo'y-



cha 2022-2026-yillarda bosqichmasobiq avtomatik stansiyalar o'rnatilishi rejalashtirilgan. Joriy yilning uchinchi choragiya kombinat bo'linmalarida ikkitagi avtomatik stansiya o'rnatildi. Hozirda uskunalar olib keelingan va o'natalmoqda. Avtomatik stansiyalar atmosferaga chiqadigan zararli tashlamalarning koncentrasiyasini doimiy nazorat qilish va tezkorlik bilan chora-tadbirlar ko'rish imkonini oshiradi. Kombinatda mavjud 470 dan ortiq dizel va benzin yoqilgisi bilan harakatlanadigan transport vositalaridan chiqadigan gazlar miqdori bosqichma-bosqich o'tkaziladigan "Toza-havo" tadbirlari davomida va kunlik nazorat orqali maxsus uskunalar yordamda o'chanmoqda.

Suv resurslarini muhofaza qilish va suvni tejash bo'yicha texnologik jarayonda suvdan qayta foydalanish, aylanmanu suv ta'minotidan, shaxta va yer osti suvlaridan foydalanish, tomchilat sug'orish tizimini joriy etish, texnologik uskunaning ishlashini optimallashtirish yo'nalishida ham aniq chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. 2024-yil davomida chiqindil omborlar (xвостохранилища)dan Zarafshon

va Uchquduq shaharlari oqova suvlarini tozalash inshootlaridan shaxta va kon suvlarli ishlab chiqarishiga yo'naltirilayotgan aylanma suvlar va qayta foydalaniladigan suv hajmi 15 million kubometrni taskhil etdi.

Bugun kombinat tizimida atmosfera havosi monitoringi yo'lg'a qo'yilgani o'zining ijobji samarasini bera-yapti. Bu, atmosfera havosining sifatiga, miqdoriy tarkibiga inson faoliyati ta'sirida doimiy va harakatlanuvchi manbalardan chiqadigan tashlanmalarni kuзatish tizimi yaratilganligiga dalolatdir. Shu yilning o'tgan davrida atmosfera havosini ifloslantruvchi 62 ta manbadan 2068 ta namuna olinib, 11 ming 466 ta tahlillar o'tkazildi. Tahlillar natijalariga ko'ra, atrof-muhitga tashlanadigan tashlanalmalar koncentratsiyasi belgilangan normalardan oshishining oldi olinib, doimiy nazorat qilinmoqda. Bundan tashhori, suv resurslarini, tupoqlarni ifloslantruvchi manbalarda yer osti suvlarining ifloslanishi bo'yicha mutazam monitoring olib borilmoqda. Tahlillar natijalari mutazam ravishda Davlat ekologiyasi va atrof muhitni muhofaza qilish qo'mitasiga taqdirm etiladi. Natijada

aniqlangan ifloslashgan hududlarga zundlilik bilan chora-tadbirlar ko'rilib, me'yordan ortiqcha ifloslanishlarning oldi olinmoqda. Kombinatning barcha bo'linmalarida oqova suv tashlanyotgan 42 ta tashlamalarda monitoring olib borildi. Suv namunasi olinib, kimyoviy moddalar bo'yicha 10 ming- dan ortiq tahsil o'tkazildi.

### "YASHIL" ENERGETIKA – EKOLOGIYANI SAQLASHDA MUHIM TARMOQQA AYLANMOQDA

Ayni vaqtida kombinatda "yashil" energetika va energiya samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Kombinat boshqarmasi binalari uchun elektr energiyasini muqobil energiya manbalardan olish maqsadida quvvati 100 kVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. Fotoelektr stansiya yiliga 200 ming kiloVatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, yillik ehtiyojning qariyb 44 foizini qoplamoqda.

Davomi 2-betda ▶

## Xabarlar

Navoiy kon-metallurgiya kombinati mamlakatimizning muhim ishlab chiqarish korxonalaridan biri hisoblanadi. Korxonaning barqaror ishlashini ta'minlashda mavsumiy rejali ta'mirlash ishlari, zarur yoqilg'i-moylash vositalarini jamg'arish katta ahamiyatga ega. Sanoat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyektlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo'yicha kombinat tomonidan joriy yilda zarur mablag'lar ajratildi.

### KOMBINAT KUZ-QISH MAVSUMIGA TAYYOR

Hozirgi kunda kombinat balansidagi elektr tarmoqlarining 253 kilometri mavsumga shay holatga keltirilish, 269 ta podstansiya joriy ta'mirlandi. Issiqlik tarmoqlarining 16 kilometri joriy hamda kapital ta'mirlanib, 12 ta qozonxonaning 68 ta qozoni joriy ta'mirlandi chiqarildi. Suv ta'minoti obyektlarining 19,2 kilometri tarmoqlari joriy hamda kapital ta'mirlandi, 100 dan ortiq suv nasoslari mavsumga shay holatga keltirildi.

Gaz ta'minoti tizimlarining tarmoqlari hamda 63 ta gaz taqsimlash puntlari ham mavsumga tayyor. Ishlab chiqarish obyektlarining 21 ming kvadrat metr tom qismi joriy va kapital ta'mirlandi. Kombinatda 1800 tonna mazut yoqilg'i va 1000 tonna texnik tuz zaxirasini shakllantirildi.

Tabiiyki, sanoat tarmoqlarining bir maromida ishlashi puxta tayyorgarlikka bog'iqliq. Ana shu maqsadda, ya'ni kombinatning barcha bo'linmalarida kuz-qish mavsumini muvaffaqiyatlari o'tkazish uchun zarur miqdorda zaxira yig'ilishi bilan birga kombinat bo'linmalarida tezkor avariya guruhlari tashkil etilib, ular samarali ish olib bormoqda.

**2024-yil 11-oktobr kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti tomonidan tashkil etilgan "Qadring baland bo'lsin, ona tilim!" tanlovingining respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.**

### QADRING BALAND BO'LSIN, ONA TILIM!

Bunda vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari rahbarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) hokimlarining davlat tili masalalari bo'yicha maslahatlari ishtiroy etdi.

Ushbu tanlov davlat tilining hayotimizdagagi o'rni va nufuzi oshirish maqsadida hamda o'zbek tiliga davlat tili maqomini berilganining 35 yilligiga bag'ishlab o'tkazildi.

Bu yilgi tanlovning davlat tili ustuvorligi ta'mirlangan eng namunaligi hujdu, davlat tilida ish yuritish yo'lg'a qo'yilgan eng yaxshi tizim kabi yo'nalishlarda tashkil etildi.

Tanlovning respublika bosqichida "Davlat tilida ish yuritish yo'lg'a qo'yilgan eng yaxshi tizim" yo'nalishni bo'yicha "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatiga qaratilganining qarabari mukofot bilan taqdirlandi.

**Joriy yilning 4-oktobr kuni Navoiy shahridagi "Farhod" madaniyat saroyida NKM kodiimlari kasaba uyushmasi Kengashi va "NKMK jamg'armasi" davlat muassasasi tomonidan 2024-yilda bolalarni yozgi sog'lomlashtirish mavsumining yakunlari bo'yicha taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.**

### ENG NAMUNALI OROMGOHLAR ANIQLANDI

Tadbirda NKM kodiimlari uyushmasi Kengashi raisi I.Rahmatov ishtiroychilarga bu yilgi mavsumini yuqori savida, uyushqoqlik bilan o'tkazganligi uchun tashakkur izhor etdi. Ta'kidlanganidek, 2024-yilning yoz mavsumida 11 ta bolalar sog'lomlashtirish oromgohida 4 ta smenada "NKMK" aksiyadorlik jamiyatini, "Navoiyuran" davlat korxonasi hamda "NKMK jamg'armasi" davlat muassasasi ishchi-xodimlarining 12 ming naflaridan ortiq farzandlari dani oldi.

Mavsum yakunlari bo'yicha "Eng namunalii bolalarni sog'lomlashtirish oromgohi" ko'rik-tanlovida "Zarafshon" bolalar sog'lomlashtirish oromgohi faxrlari 1-o'ringa sazovor bo'ldi. "So'g'diyona" oromgohi 2-o'ringa va "Sarmish" oromgohi esa 3-o'ringa loyiq, deb topildi.

Shuningdek, tanloving "Eng yaxshi ovqatlantirishni tashkillashtirgan oromgoh", "Eng yaxshi sport tadbirlarini tashkillashtirgan oromgoh" va boshqa qator nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar aniqlandi. Barcha e'tirof etilganlarga tadbir tashkilchilari tomonidan diplom va qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

## Yubiley oldidan

# JANUBIY KON BOSHQARMASI

### Navoiy kon-metallurgiya kombinatining ilg'or korxonasi

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti, yutuqlari haqida gapirganda, eng avvalo, ko'z oldimizga dunyoda ulkan sanoat klasteri bo'lgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati keladi. Bugun qariyb ellik ming kishilik ahil jamoa ishlab chiqarayotgan qimmatbaho metallar yurtimiz iqtisodiyotini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Albatta, bu natijalarda uning tarkibidagi har bir kon boshqarmasining alohida o'rni bor. Janubiy kon boshqarmasi kombinatning yetakchi bo'linmalaridan hisoblanadi. Ushbu korxona tashkil topganiga 60 yil to'layapti.

Kon boshqarmasi tashkil topishi o'tgan asrning o'talarida Nurobod tumanida uran koni topilishi bilan bog'liq. Bu hududda bundan oltish yil muqaddam "Sobirsoy" geotekhnologik koni o'z faoliyatini boshlagani kon boshqarmasi tashkil topishi, rivojanishi, ishlab chiqarish geografiysi kengayishiga zamin yaratadi.

– Mashru o'zbek geologi Ibrohim Hamroboev yevning Chormitan hududida ulkan oltin zaxirasi borligi haqidagi bashorati olib borilgan geologiyadir. "Sobirsoy" geotekhnologik koni o'z faoliyatini boshlagani kon boshqarmasi tashkil topishi, rivojanishi, ishlab chiqarish geografiysi kengayishiga zamin yaratadi.

Kon boshqarmamiz uchun taraqqiyot bosqichi bundan yigirma ikki yil avval, ya'ni, 2002-yilda "Zarmitan" va "Marjonbuluoq" oltin konlari, Marjonbuluoq oltin ajratish olish xisbi kombinat tashkiliga kiritilishi, shuningdek, 2009-yilda "G'ujumsoy" koni, 2010-yilda 4-gidrometallurgiya zavodi foydalanishga topshirilishi bilan boshlangan. Qimmatbaho metallar ishlab chiqarish bo'linmamagan asosiy faoliyat turiga aylandi. Buning natijasida kon boshqarmasi Q'shrabot, G'allaorol va Nurobod




ko'satkichi esa 92,2 foizga yetkazildi. Mana shu o'n to'rt yilda zavodda 20 million tonnadan ortiq ma'dan qayta ishlendi. Keyingi sakkiz yilda amalga oshirilgan investitsion loyihamalar, ulkan bonyodkorlik ishlari boshqarma tarixida yangi sahifa ochdi va ishlab chiqarishni yanada kengaytirib yubordi, - deydi "Do'stilik" ordeni sohibi Shavkat Tursunov. – Yangi O'zbekistonning yangi zavodlari qurilishi, konlar ishga tushirilishi, katta hajmda ma'danni yulash quvvatiga ega ekskavatorlar, texnologiyalar, shaxta chiqurligi ming metraqa yetishi, boshqaruva mahalliy kadrlarga ishonib topshirilishi va boshqa e'tirofga molik ishlari bundan ber necha yillar avval tasavvurimizda ham bo'imagan. Gurungarda buni bizda ishlab ketgan keksa avlod vakillariga aysak, misoli ertakdek tuyuladi. Aslida esa, bu – deydi "G'ujumsoy" konida 2011-yilda boru yo'g'i 46,2 ming tonna ma'dan qazib olingen bo'lsa, bu ko'satkichi 2023-yilda 861,7 ming tonnani tashkil etgani yoki ishlash chiqarish hajmi qariyb 19 baravarga oshgan, ushbu konda 2011-yilda 295 nafar ishchi-xizmatchi mehnat qilgan bo'lsa, hozirda 1,2 ming naflarga yaqin ishchi faoliyat olib borayotgani g'oyat qisqa davrda kon qanchalik oldinga ilgarilab ketganini ko'satsadi.

Shu o'rinda ba'zi tahlillarga to'xtalib o'tsak 2018-yilda "G'ujumsoy" konida zamoniav y-

Davomi 2-betda ▶

## Iftixor

Ellik yetti yildirki, adog'i yo'qdek ko'ringan kengliklarda yastangan "Muruntov" koni insoniyatga o'z bag'ridan eng nodir va eng qimmatbaho yer osti boyliklarini yetkazib beradi. Bugungi kunda oltin qazib olish bo'yicha jahonda eng yirik konlardan biri bo'lgan mazkur kon keyingi yillarda Kanadada joylashgan "KITCO" xalqaro tahlil markazining oltin qazib olish bo'yicha e'lon qilgan yetakchi o'nta kon ro'yxatidan birinchi, ikkinchi pog'onani egallab kelmoqda. Konning yangi geologik-matematik modeliga muvofiq aniqlangan oltin zaxiralari 2130-yilgacha ruda qazib olish imkoniyati mavjudligini ko'rsatmoqda.



"Muruntov" konida hozirda keng qamroqli is-tiqbolli loyihalar muvaffaqiyatlari amalga oshirilib kelmoqda. Buning natijasida ma'dan qazib olish yildan - yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2013-yilda kondon 44 135 ming kubometr tog'jinslari qazib olingen bo'lsa, joriy yilda bu ko'satsatkichni 123 500 ming kubometrga yetkazish mo'ljallanmoqda.

Oltin konlaridan olingen namunalarni tahlil qilishda anqlik darajasi o'ta yuqori bo'lishi shart. 1977-yilda "Muruntov" koni tarkibida noyob bo'linma, ya'ni gamma-aktivlashtirilgan Markaziy laboratoriysi ishga tushirilgan. Laboratoriya elektronlarni chiziqli tezlatkichda birinchi kvant tormozlangan gamma nurlari orqali tahlil ishlari olib borishi bilan noyob hisoblanadi. Yana bir jihat - dunyodagi hech bir fizik laboratoriya katta hajmda tog' jinslarini tezkor tahlil o'tkazish imkoniyatiga ega emas. Bu kabi zamonaviy laboratoriya Markaziy Osiyoda yagona hisoblanadi. 1977-yilda laboratoriyyada bir smenada 400 ta namuna tahlil qilingan. Hozirgi kunda bir sutkada bitta tezlatkichda 3 mingdan ortiq namuna tahlil qilingmoqda.

"Muruntov" konini o'zlashtirishning V navbati investitsiya loyiha doirasida konda ishlar jadal sur'atlarda olib borilmoqda. V navbat I-bosqich loyihasining texnik-ig'tisodiy asoslarli ishlab chiqildi va uning qurilishi uchun 733,9 mln AQSh dollarri miqdorida mablag' ajaratildi. Hozirgi kunda "Muruntov" konining V navbati chegarasida zaxiralarni ochish bo'yicha kon ishlari boshsangan. Kon massalarini qazib olish va ularni tashishda, dunyoda yetakchi chet el kompaniyalarning konchilik sohasida ish unumdonligi yuqori bo'lgan texnikalari qo'llanilmoqda. Kon massalarini qazib olishda HITACHI, Komatsu, CAT, EKG kabi yuqori unumdonli ekskavatorlardan foydalaniilmoxda va ularning umumiyo soni bugungi kunga kelib 42 tani tashkil qilmoqda. Kon massalarini tashishda, 135 taga yaqin SAT, Komatsu va boshqa avtoag'dargichlardan foydalaniilmoxda. Doimiy ravishda konda konchilik texnikasi va asbob-uskunalarini modernizatsiyalash va yangilash ishlari izchil davom ettilmoqda. Korxonada tejamkorlikni saqlash maqsadida 2011 yilda dunyoda o'xshashi bo'magan yagona loyiha hisoblangan KNK-270 tik-qiya konveyyer majmuasi ishga tushirildi. Ushbu majmuuaning umumiy uzunligi 1285 metrni tashkil qiladi. Konveyyer ishga tushirilishi bilan yukni yetkazib berishdagi xarajatlar 50 foizga kamayib, kon chuqurligidagi ma'danlarni tashishda avtoag'dargichlarning ko'tarilish ba'lalidagi 300 metrغا qisqardi. Maxsus boshqaruva markazidan boshqariladigan KNK-270 tik-qiyali konveyyerining ishlab chiqarish unumdonligi soatiga 3500 tonnaga teng.

Kon tarkibida "Orica Germany" kompaniyasi texnologiyasi asosida 1-emulsion portlatuvchi moddalar sexi qurildi. Mazkur sex qisqa vaqt mobaynida butun xarajatlarni qoplab, mahalliyashtirish dasturi doirasida iqtisodiy samara bera boshladi. Kundan-kun mamlakatimizdag'i foydali qazilma boyliklarini qazib oladigan konlarda emulsion portlovchi moddalarga bo'lgan ehtiyoj ortib borganligi bois 2017 yildan boshlab kombinat tizimidani tashqari barcha konlarga ham portlovchi moddalar yetkazib berish yo'lg'a qo'yildi. "NKM" AJda yangi-yangi foydali qazilma konlарining ochilishi, ayniqsa, Zarmitan hu-dudagi yeri osti foydali qazilma konlari hamda boshqa korxonalarining emulsion portlovchi moddalarga ehtiyojni qondirish yangi - 2-zavod qurilishiga asos bo'ldi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida Zarafshon ta'mirlash mexanika zavodi hamda Navoiy mashinasozlik zavodiga har oyda belgi-

rolklar tasvirga olindi, naryad topshiriq berish xonalari turli xildagi mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha ko'rgazmali qurollar, plakatlar, banner va televizorlar bilan jihozlangan bo'lib, ulardan ishchilarga ishlarni xavfsiz bajarish usullarini o'rgatishda foydalaniib kelinoqda. Bizning maqsadimiz har bir ishchi-xodim ishga sog' kelib, sog' ketishi. Shu boisdan konda mehnat muhofazasi doimo birinchi o'rinda.

Ishchi-xodimlarimizning kasbiy, mehnatga oid, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini ta'minlash

## Yubiley oldidan

# JANUBIY KON BOSHQARMASI

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining ilg'or korxonasi

## ■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

"Marjonbulloq" konida 2011-yilda 2,6 million kubometr tog' jinslari qazib olingen bo'lsa, bu ko'satsatkich 2023-yilda amala 5,3 million kubometrga yetdi. Bu yutuqlar zamirida, albatta, kombinat ko'magida olib borilgan ishlar, janoamizning ulkan xizmatlari mujassam.

– Eng muhim, bugun kon boshqarmasi bo'lmalaridagi eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni, bo'lim va bo'lmillarni mahalliy kadrler boshqarayotgani, olti ming kishilik jamao ahil, o'z kasbinining haqiqiy fidoyilaridan tashkil topgan, rejalor ortigi bilan ado etib kelinayotgani jamaoga shon-shuhurat keltirmoqda, – deydi kon boshqarmasi bosh muhandisi To'qin Nizomov.

– Yuqoridaq kabi ishlar bardavomdir. Bu o'z-garishlar xalqimiz hayoti, soha rivojiga o'zgarishlari olib kirmaqda. Buning amaldagi isboti sifatida bo'lmillarimiz joylashgan uchta hududda konchilik va metallurgiya sohasi jadal rivojlangu-ni, e'tibor tufayli zamonaviy sanoat industriyasining rostlagani fikrimiz isbotidir.

Ayni paytda "Zarmitan" va "G'ujumsoy" konlari da zaxiralarni ochish va o'zlashtirishga qaratilgan muhim ahamiyatga ega loyihalar bo'yicha ishlar davom ettilmoqda. Bu, ma'dan qazib olishni 2020-yilgacha ta'minlash imkonini beradi. Bunday loyihalaridan biri – qiyatmi 50 million AQSH dollarri bo'lgan "Zarmitan" oltin-ruda zonasini konlari negizida kon-ruda kompleksining quiy sathlarini o'zlashtirish" loyihasidir.

Chexiya Respublikasining "Mine Construction Alliance s.r.o." kompaniyasi bilan hamkorlikda olib borilgan uch yillik samarali mehnat mahsuli sifatida O'zbekiston konchilik sanoato tarixida shaxta diametri 6,5 metr va chiqurligi ming metraga yetkazildi. "Skipli" shaxta stolining yillik unumdonligi 1,4 million tonna ma'danni yer yuvasiga chiqarish va yangi ish o'rnlari yaratish imkonini berdi.

Shuni mammuniyat bilan ta'kidlash joizki, bugun ko'pming kishilik Navoiy kon-metallurgiya kombinatidek ulkan korxona qadami yetgan joy obod bo'lib, gullab-yashnamoqda. Hududlarga sanoat bilan birga, ijtimoiy obyektlar, zamonaviy infratuzilma ham kirib bormoqda.

Birgina, Zarkentni olib qaraydig'an bo'lsak, bu yerlar bir paytalar hech qanday infratuzilma ega bo'lmagan oddiy qishloq bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz. O'zgarishlar hudoq, odamlar yatoz tarzini tubdan o'zgartirib yubordi. Keyingi yillarda barpo etilgan "Akvarpark" majmuasi, zamonaviy sport majmuasi va "Konchi" madaniyat uyi konchilar, yosh ollalar va harbiylar uchun qurilgan ko'p qavatlari uy-joylar, yotoqxonalar va boshqa ijtimoiy obyektlar konchilar maskani ko'rkinib tubdan o'zgartirib yubordi.

Shuningdek, ulkan jamoada har bir inson yuksak qadrlanib, ishchi-xodimlar, ularning oila a'zolari, faxriyalarini ijtimoiy himoya qilish yo'lida ham e'tirofga molik ishlar amalga oshirilmoqda.

Shunday ulkan marralarni zabit etilishida jamaomizda mehnat qilayotgan har bir muhandis-teknolog, konchi, metallurg, geolog, marksheyder

## ■ Dolzarb mavzu

# TABIATNI ASRASH

faqat ekologlar emas, barchaning ishi

## ■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Xuddi shunday fotoelektr stansiyalar Nazorat o'chov asboblar va avtomatika markaziy laboratoriysi hamda Tarmoqlar va podstansiyalar sexidi o'rnatildi. Navoiy mashinasozlik zavodida 500 kiloVatt, "Pistali" konida 100 kiloVatt quvvati fotoelektr stansiyasi loyihalashtirish ishlari yakunlanmoqda. Fotoelektrpanelari bilan birga kombinatda 3346 dona quyosh geliokollektorlari o'rnatish rejashtirilgan bo'lib, shu kunga qadar 1647 dona geliokollektor foydalanihsiga topshirildi. Bu amaliy ishlar natijasida ishlab chiqarish korxonalarining yoz mavsumidagi issiq suvg'a bo'lgan ehtiyoji to'liq qolganmoqda. E'tiborilisi, bir yilda 1,3 million kubometr hajmdagi tabiyl gaz iqtisod qilinishi bilan bir qatorda ekologiyaga yetkaziladigan zarar anchaga kamaymoqda. Birgina 2023-yilda havoga tashlanadigan zararli moddalar 43,2 ming tonnaga kamaydi.

Shu bilan birga avtoparklar gibrid avtomobillar bilan yangilanayotgani o'zining ijobji samarasini berayot. Joriy yilda 40 dona, 2025-yilda esa 20 dona elektromobil va gibrid avtomobilarni xarid qilish rejashtirilgan. Bu esa yiliga 115 tonnadan ortiq yoqilg'i mahsulotlarini tejash, eng muhim, atmosfera havosi yanada yaxshilanishiga olib keladi.

**BIOXILMA-XILLIK MUHOFAZASI – KUN TARTIBIDAGI DOLZARB MASALA**

Navoiy kon-metallurgiya kombinat tasarrufidagi korxonalarida bioxilma-xillikni muhofaza qilish bo'yicha yashil hududlari ko'paytirish va atmosfera havosini yaxshilash maqsadida qator ishlar amalga

va boshqa kasb egalari, Davlat mukofoti sovrindorlari, ko'krak nishonlari sohiblarining fidokorona mehnatlari tahsinga loyiq.

Bosib o'tilgan oltishmiz yil korxonamiz jamoasi uchun sinovli, mashaqqatli, shu bilan birga, muvaffaqiyatlari davr bo'lgani rost. Chunki, ne-ne zahmatlar ortidan zabit etilgan 60-yillik marra, bu – katta tarix, chinakam fidoyilik namunasidir. Bunda, kon boshqarmasida fidokorona mehnat qilgan minglab insonlari bilan bir safda uni oyoqqa turg'azish, ilg'orlar safiga olib chiqishga beqiyos hissasi singan rahbarlarning ulkan xizmatlari bor. Bugungi quvonchli kunda kon boshqarmasiga bir paytalar rahbarlik qilgan Avazxon Ezozxonov, Yorqin Shakarov, Begmat Atabayev va sohaning boshqa fidoyilari xizmatlari alohida e'tirof etish lozim.

O'tgan davrda ko'plab soha darg'alari yetishib chiqqani, ularning mehnatlari e'tirof etilib, bir guruhni davlatimizning yuksali mukofotlari bilan taqdirlangani haqiqiy e'tibor namunasidir. Jumladan, 2008-2023-yillarda Komil Tangirov "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'satgan sanoat xodimi" faxriy unvoni, Muhiddin Choripulov "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni, Begmat Atabayev, Xolboy Eshqvuvatov va Abdug'an Usmonovlar "Mehnat shuhrati" ordeni, Yorqin Shakarov, Shavkat Tursunov va Abdirahim Norboyevlar "Do'stlik" ordeni, Akmal Jamanqulov, Asqar Zokirov, Nuridin Berdiyorov, Razzoq Bekqulov, Abdurasul Ishmurzayev, Mavlon Gadeyov, Luksiyar Ismonov va Abuhatoy Hotamovlar "Shuhrat" medali bilan taqdirlangani jamoaning jasoratli mehnatiga berilgan haqiqiy baho, deb bilamiz.

Bugun safimizga zamonaviy fikrlaydigan, har qanday texnologiyalarni boshqara oladigan, qalbida o'z yurtiga daxldorlik hissi barqaror bo'lgan yosh mutaxassislar, mahalliy kadrler, sohaga yangi sulolalar kirib kelayotgani, ular biz bilan yoma-yon ishlab, barcha muvaffaqiyatlarining hissa qo'shayotganini alohida ta'kidlash zarur. Kombinatida shakllangan Tolliboy Yuldashev, To'qin Nizomov, Alisher Gizzatov, Xurshid Normatov, Asqar Zokirov, Nusratullo Hayitov, Ozod Farmonov, Marat Nuraliyev, Muhammad Sharipov, Bekzod Toshpo'latov, Alisher Hazratqulov kabi yosh rahbar-xodimlar o'zlariga bildirilgan yuksak ishonchni har tomonlama oqlab kelishapti.

Bugun kon boshqarmamiz jamoasi oldida yana da ulkan va mas'uliyatiroq vazifalar turibdi. Rejalarni o'z vaqtida bajarish bilan birga, ishlab chiqarish hajmini oshirib borish, bu borada yangi investitsiya va innovatsion loyihalarini amalga oshirish asosiy maqsad bo'lib qolaveradi. Ahil jamaomiz zimmasiga olgan sharafli vazifalarni sidqidildan ado etib, matonlarni insonlari bilan kombinat rivoji, yurtimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishda davom etaveradi.

Muhim sanani yorug' yuz bilan qarshi olayotgan qadron jamaomizga yubiley muborak bo'lsin!

Dildora ATABAYEVA,  
Janubiy kon boshqarmasi  
Axborot va ma'naviyat-ma'rifat  
guruhu rahbari.



langan tartibda ishlab chiqarishda foydalananish uchun kerakli bo'lgan tirkach, tortma, g'ildraklar, ekskavator cho'michlari, butlovchi qismlari, roliklar, turli yarim muftalar kabi butlovchi qismlar tayyorlashta talabnomalar taqdirmi etiladi. 2023-2024-yillarga mo'ljalangan kon-shaxta maxsus texnikalari, avtoag'dargichlar, burg'ilash uskunalarini va texnologik jizholarning ehtiyoj qismlarini ishlab chiqarishni yo'lg'a qo'yish maqsadida kombinat va kon boshqarmamiz tomonidan "Yo'l xaritas" tasdiqlangan. Unga ko'ra, Rossiya, Xitoy, Germaniya, AQSh, Yaponiya kabi davlatlarda ishlab chiqarilgan burg'ilash uskunalarini, turli rusumlaridagi ekskavatorlarning ehtiyoj hamda butlovchi qismlarini tayyorlashtash ishlab chiqarish rejashtirilgan. Natijada import qilinayotgan ehtiyoj qismlar va materiallarni, mahsulot tannarxi va valuta xarajatlari kamayishiha olib keladi.

Kon bo'lmalarida mehnati muhofaza qilish holatini yaxshilash, mehnat sharoitlarini ta'minlash, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga roya qilish, ish joylarida turli xil baxtsiz hodisalarning oldini olish, ischlarning hayoti hamda sog'ligini saqlash bizning asosiy, ustuvor vazifalarimizdan birdir. Hozirgi kunda kon mukandis - texnik xodimlari va ischlarning bilan savyasini oshirish maqsadida naryad tizimi ishlchi-kasblar uchun 10 dan ziyyod video-

Sherzod KAMOLOV,  
"Muruntov" koni boshlig'i.

oshirildi. "Yashil makon" umummiliy loyihi doira-sida joriy yil bahor mavsumida 132 ming tupdan ortiq mevali va manzarali buta daraxt ko'chatlari o't-qazildi, kuz mavsumida 160 ming manzarali, mevali hamda buta ko'chatlari o'tqazish rejashtirilgan.

Yashab turgan zamnimiz – yer, suv, havo va boshqa unsurlardan tashkil topgan. Ona tabiat Yaratganning mulki bo'lib, ular insoniyatga foydalanihsiga olib qolayotgan bo'lgan omonatdir. Biz bu omonatni qanday bo'lsa, shundayligicha avaylab-ashrasizim, kelgusi avlodlarga yetkazishim kerak bo'ladi. Yurtimizning har qarich yeri oltiing teng. Uning go'zal tabiatni, musafavo havosi, har bir giyohi, har bir daraxti, o'monlar, hayvonot olami o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu tabiyl boylikka daxil qilinishing oldini olish, muhofaza qilish faqat shu soha xodimlarining ishlasi emas, balki barchanining burchidir. Chunki, biz yashayotgan hudud musaffoligi, ekologik muvozanat barchamiga biday daxlidir.

Shu sabab, aholining ekologik madaniyatini, insonlarning tabiatga bo'lgan mehlari, tabiyyi resurslarning tejamkorlik bilan foydalish bo'yicha mas'uliyatini oshirishimiz zarur. Shu ma'noda, mamlakatimizda sof ekologik muhitni asrab-avaylashga qaratilgan keng ko'lamlari chora-tadbirlar har birimizni ogohlilik chorlashi bilan birga kelajak avlodlar oldidagi burchimizni anglashga undashi bilan ham ahamiyatlidir.

Yayrullo BAQOYEV,  
"NKM" AJ Mehnat muhofazasi, sanoat xafsizligi va ekologiya (ESG) departamenti  
Atrof-muhit muhofazasi bo'limi boshlig'i.



## ■ Mehnat jamoalarida

Dunyoda mo'jizalar ko'p. Ammo inson tafakkuri va mehnati mahsuli sabab buning bo'lgan esa har doim odamlarni hayratga solib kelgan. Sahro bag'ida qad rostlagan, yurtimizning marvaridi hisoblangan Zarafshon shahri va bu yerda barpo etilgan korxonalarining imkoniyatlari ham mo'jiza aslida. Taqdirdi qarangki, hayot yo'llarimni Zarafshon shahri bilan chambarchas bog'ladi va yigirma bir ming nafardan ortiq ishchi-xodimlar mehnat qilayotgan Markaziy kon boshqarmasida faoliyat yuritishni taqozo etdi. Shunday mo'jizalardan biri – 2021-yilda Zarafshon shahridan 35 kilometr uzoqlikda, sahro bag'ida ishga tushgan 5-gidrometallurgiya zavodidir.

Har gal bu yerga tashrif buyurarkanman, zavod yozning jazirama issig'iyu, qishning qahraronida hormay-tolmay mehnat qilayotgan zahmatkashlarning fidoyligiga guvoh bo'laman. Dunyoda o'xshashi bo'laman, mutlaqo yangi texnologiya asosida qad rostlagan zavod yiliga 5 million tonna rudani qayta ishlash imkonini beryapti. Yangi zavod yangi imkoniyat, yangi ish o'rni demakdir.

Bugun zavodda 1302 nafr ishchi-mutaxassislar faoliyat yuritayotgan bo'lishsa, ularning 50 foizini yosh mahalliy kadrlar tashkil etadi. Prezidentimiz ta'kidlab kelayotganlaridek, yoshlar – xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchidir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizni samarali amalga oshirishda yoshlar hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqmoqda.

Oksidli va sulfidli ma'danlar avtomobil va temir yo'l transporti orqali ma'danni qabul qilish bo'limga kelib tushib, tebranma g'alvirlar orqali ikki ajaritaladi. Katta-katta maydalichlarda maydalangan ma'dan konveyer transporti orqali yanchish tegrimonlariga yetkazib beriladi. Zavod sharoitida oltin tarkibidagi oksidli ma'dan an'anaviy usulda, ya'ni gidrometallurgik qayta ishlansa, sulfidli ma'dandan oltinni ajaritali olish qoshimcha qayta ishlash jarayonlarini talab etadi.

Ish jarayonlarini qiziqish bilan kuzatish ekanmiz, zavod hududidagi katta-katta aylanma quvvuri pechlar e'tiborimiz tordi. Ushbu pechlar haqida zavod bos muhandisining ishlab chiqarish bo'yicha o'rinosari Anvar Xudaynazarov gapirib berdi. – Dastaval, tegrimonlarda yanchilgan ma'dan flotatsiya usulida boyitildi. 5 turdag'i reagentlardan foydalanan olingen flotatsiya boyitmasi diametri 28 metri

ning o'zida ham oksidli, ham sulfidli ma'danlar qayta ishlanishi zavodning nechog'lik murakkab texnologik sxemada ishlayotganligidan dalolat beradi.

Oksidli va sulfidli ma'danlar avtomobil va temir yo'l transporti orqali ma'danni qabul qilish bo'limga kelib tushib, tebranma g'alvirlar orqali ikki ajaritaladi. Katta-katta maydalichlarda maydalangan ma'dan konveyer transporti orqali yanchish tegrimonlariga yetkazib beriladi. Zavod sharoitida oltin tarkibidagi oksidli ma'dan an'anaviy usulda, ya'ni gidrometallurgik qayta ishlansa, sulfidli ma'dandan oltinni ajaritali olish qoshimcha qayta ishlash jarayonlarini talab etadi.

Ish jarayonlarini qiziqish bilan kuzatish ekanmiz, zavod hududidagi katta-katta aylanma quvvuri pechlar e'tiborimiz tordi. Ushbu pechlar haqida zavod bos muhandisining ishlab chiqarish bo'yicha o'rinosari Anvar Xudaynazarov gapirib berdi. – Dastaval, tegrimonlarda yanchilgan ma'dan flotatsiya usulida boyitildi. 5 turdag'i reagentlardan foydalanan olingen flotatsiya boyitmasi diametri 28 metri

“

Bugun zavodda 1302 nafr ishchi-mutaxassislar faoliyat yuritayotgan bo'lishsa, ularning 50 foizini yosh mahalliy kadrlar tashkil etadi. Prezidentimiz ta'kidlab kelayotganlaridek, yoshlar – xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchidir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizni samarali amalga oshirishda yoshlar hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqmoqda.

quyultirgichda, chiqindisi esa diametri 36 metri quyultirgichlarda quyultiriladi. Boyitma tarkibidagi sulfidli minerallar va uglerodli birikmalar gidrometallurgik tanlab eritish jarayonida oltinning ajarish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishini inobatga olib, sulfidli boyitma mutlaqo yangi texnologiya hisoblangan kislror-ohakli oksidlanish jarayoniga uzatiladi. Qisman oksidlangan boyitma diametri 20 metr bo'lgan quyultirgichda quyultirilib, dastlabki sorbsiyalash jarayoniga yuboriladi. Natrii sianid eritmasi bilan eritmaga o'tkazilgach, ma'lum miqdordagi metall smolaga shimidiriladi. Dastlabki sorbsiyadan chiqqan mahsulot esa 24 metr bo'lgan quyultirgichda quyultirilib, kuydirish bo'lismasi filtrlash liniyasiga jo'natiladi. Tarkibida

qimmatbaho metallar bo'lgan suvsiz-lantirilgan mahsulot(kek) uzunligi 20 metr bo'lgan barabanli quritish pechiga avtomatlashtirilgan konveyer lentlari orqali yetkazib beriladi. Quritish pechidan chiqqan mahsulot uzunligi 80 metr bo'lgan aylanma quvvuri kuydirish pechiga jo'natiladi. Oltinni ajratib olish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi oltingugur va uglerod elementlari 600-650 darajadagi issiqlik ta'sirida kuydirilib, oksidli holatga o'tkaziladi. Kuydirilgan mahsulot tarkibidagi zaralar gidrometallurgik qayta ishlash uchun barabanli tegrimonda yanchiladi va quyiltirgichda cho'ktiriladi. Quyiltirilgan bo'tana gidrometallurgik usulda tanlab eritishga jo'natiladi. Kuydirish jarayonida kimyoviy reaksiyalar hisobiga hosil bo'lgan zarari, zaharli gazlar va changlarni inson salomatligi va atrof-muhitga salbiy tasir etishining oldini olish maqsadida ko'p bosqichli havoni tozalash uskulalari o'rnatalgan. Zavod uchun yangi texnologiya hisoblangan quritish va kuydirish pechlarida mahsulot tarkibidagi oltingugur va uglerod elementlarini kuydirish hisobiga zavodda umumiy oltin ajratib olish darajasini oshirishga erishmoqda, – deydi mutaxassis sulfidli ma'danni qayta ishlash sxemasining tafsifini qisqacha tushuntirish.

Ma'dan qabul qilinib, uni yarim tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo'lgan har bir jarayon o'ta murakkab va yangidir. Negaki, bu yerda qo'llanilayotgan texnologiyaning boshqa joy-

larda o'xshashi yo'q. Zavodda Navoiv mashinasozlik zavodida ishlab chiqilgan "MShR 32x45" markali sharli tegirim, diametri 28, 36 metli quyultirgichlardan foydalaniqlmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktobrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'grisida"gi farmoniga muvofiq, mamlakatimizda raqamli iq-tisodiyoti faol rivojlantirishga kirishildi. 5-gidrometallurgiya zavodida ham ishlab chiqarish to'liq avtomatlashtirilgan holda amalga oshirilayapti. Buning uchun korxonada zamonaevi talablariga mos keladigan "Endress+Hauser" brendi ostidagi Germaniya texnologiyalar asosida yaratilgan o'chov vositalari hamda "Siemens" brendi ostida ishlab chiqarilayotgan kontrollerlar o'rnataligan. O'chov vositalaridan keldigan ma'lumotlar bevosita kontrollerlar orqali serverlarga uzatiladi. Bunda ma'lumotlarni serverga uzatish uchun optik tolali kabellardan foydalaniildi. Zavod hududida 7 ming metr dan ortiq optik tolali kabellar yotqizilgan bo'lib, u oddiy elektrik kabellardan o'zinining ma'lumotlar uzatish tezligi va tashqi ta'sirlarga chidamliligi bilan tubdan farq qiladi. Bu esa optik kabellar orqali uzatiladigan ma'lumotlarning yaxlitligi va maxfyligini maksimal darajada ta'minlaydi.

Zavodning ma'dan tayyorlash sevidan boshlab, desorsbiya va tayyor mahsulot sexigacha bo'lgan barcha

texnologik jarayonlarni boshqaruva puli operatorlari xonasida monitorlar yordamida, vizual tarzda kuzatish mumkin. Agar texnologik jarayonlarda belgilangan me'yordaridan chetga chiqishlar sodir bo'lsa, operatorlar xonadan chiqmasdan, boshqaruva paneli yordamida muammoni bartaraf etishga kirishdilar. Bu esa texnologiyada ishchi kuchchini va inson omilini kamaytirgan holda ko'zlangan samaradorlikka erishish uchun imkoniyat yaratadi.

Zavodda yosh bo'lishiga qaramay anche tajribali rahbar Farhad Cho'liyev boshchiligidagi o'z ishining bilmolndlariдан iborat yetku mutaxassislar, fidoyi ishchi-xodimlar e'tirofga loyiq ishlar ni amalga oshirmoqdarlar. "Hammasini kadrler hal qiladi!", – ishlab chiqarilayda bu aksiomasi aslo o'z bahosini yo'qotmaydi. Shu boisdan kombinatning eng asosiy boyligi bo'lgan zahmatkash va fidoyi, hayotini sevimli kasbiga baxshida etgan ishchi-xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish hamisha e'tibor marказida. Bu esa ularni yangi-yangi marzalar sari da'vat etmoqda.

Ishidan manfaat, aniqrog'i qadr topgan jamao kombinat rivoji, yurt ravnaqiga hissa qo'shishtirishda bir tanu bir jon bo'lib, fidokorona mehnat qilmoqda. Aslida vatanparvarlik tilda emas, insонning qalbida va bu uning qilayotgan amallarida namoyon bo'laadi. Shu ma'noda korxonada mehnat qilayotgan turli millat farzandlarining har biki vatanparvarlardir.

Nafosat ZIYOYEVA.

## ■ Kombinat Ayollar Kengashi faoliyatidan

Yurtimizda xotin-qizlarning muammolarini o'rganish va hal etishga ko'maklashish, oilalarni mustahkamlash va ularning farzand tarbiyasidagi rolini hamda ijtimoiy faoliyitini oshirish maqsadida qator korxona va tashkilotlarda xotin-qizlar Kengashlari tashkil etilgan. "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyat Ayollar Kengashi raisi Sabohat Nazarovadan xotin-qizlarning jamiyatdagini rolini oshirish, har tomonloma qo'llab-quvvatlashga qaratilgan vazifalarning ijrosi haqida gapirib berishni so'radik.

# ZAMON BILAN HAMNAFAS



didi va estetik qarashlari mujassamlangan bo'ldi. Xotin-qizlarimiz ishtirokida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ularning intellektual salohiyatini oshirish uchun esa "Zakovat" o'yinlari, "Kombinatning Oltin ayoli – 2024", "Nafosat malikalar" ko'rik-tarlovlar, "Xon atlas" festivali o'tkazildi.

Bugungi kunda kombinatimizdagagi bo'linmalarida olti ming bir yuz yetmish sakiz nafr xotin-qizlar mehnat qilish kelmoqda, yil boshidan buyon ikki yuz yigirma olti nafr xotin-qizlar ishga qabul qilindi. Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan, o'zgalar ko'majiga muhtoj aylarimiz alohida e'tiborda bo'lib, ularidan bir yuz yigirma sakzik nafriga kasaba uyushmasi Kengashining "Birdamlik jam'armasi" tomonidan ikki yuz oltimish ikki million so'm moddiy yordam ajaritaldi.

Har yili 8 mart-Xalqaro xotin-qizlari munosabati bilan kombinatda mehnat qilayotgan xotin-qizlarimiz moddiy rag'batlantrir kelmoqda. Ushbu yilda ham olti ming ikki yuz qirg'ir nafr xotin-qizlarimiz mukofot puli bilan taqdirlanishdi.

Kombinat ayollarining sog'liqlarini mustahkamlash maqsadida "Sog'lim ayol – buyuk kelajak", "O'n ming qadam" shiorlari ostida aerobika, sheyping, yoga, pilates, velomarafon, gimnastrada kabi sport tadbirlarini muntazam o'tkazilayapti. Joriy yil boshidan buyon hisobida uch ming ikki yuz yetmish nafr xotin-qizlarimizning sihatgohlarda dam olishlari tashkil etildi.

Milli qadriyat-har bir millatning o'zligini va sha'nini ulug'laydigan urf odatlar majmuasidir. Milliy liboslarimizda xalqimizning o'tmishi, urf-odat, an'analari,

"Konchilik shuhrat" ko'krak nishoni, Faxriy yoriqlar bilan taqdirlanganlar, "NKMK faxriysi" degan nomga sazovor bo'lganlar.

Ayollarimizning nafaqat sog'lig'i, moddiy ta'minoti, balki oilalarining tinchligi ham alohida e'tiborda. "Oila mustahkamligi va mas'uliyati, olibayimlar va ularning oldini olish" mavzusida tez-tez davra suhbatlari, uchrashuvlar o'tkazilib turiladi. Chunki oila tinchligi-bu yurt tinchlidir...

Tug'ilganimdan beri, desam yolg'on bo'ladi, ammo yo'rgakdan chiqqanimdan beri ona tilimda bijirlashni boshlaganman.

Shundan beri tilim menga xizmatda.

Shu qadar xokisorligidan bahosini bilmabman, to boshga tushmaguncha o'z tilida sayrashni istagan bulbular holi! Carhisobon qilsam, ko'p va xo'b yaxshiliklar ilinibdi menga onam tili!

Bog'cha opalarim "Lenin bobo"ni ayt, derdi. Men o' "Xonzodabegim"ni aytardim, o'z tilimdag'i monologim chiroyliroq eshitilardi o'zimga. O'zbegimi tilida qancha she'b o'lsa, qulog'im eshitigani hamon yuragiinga quyilardi o'sha ash'or.

Birinchi harf, birinchi so'z. Bularni qo'shib o'qish, bog'lash ilk muallimsiz naqadar qiyin ish. Ustoz ko'magi bilan daftarga guldekel teridi o'z tilimagi so'zlar! Mehr bilan, hijabal, bo'g'ir lab o'qishga chog'landim. Biq-binoi o'qiguvchi bo'ldim onam tilini! Bunchalam ram qiziq saboq ekan bu til!

Yuzi lola, ko'zi jola qiz bo'ldik – hazrat Navoiydek ulkan zotga humrat. Boburga oshiqligimiz nishona berdi tilimizda bitilgan xizinalarni o'qib. Ko'zi nigor mushtari bo'ldik tilimiz tufayli. Oliyogh

■ Minnatdorlik satrлari

# SHAFFOFLIK SAMARASI

Yurtimizda barcha sohalarda inson qadri tamoyili asosida yoshlarga e'tibor qaralmoqda. Davlatimiz rahbari kambar qalilki qisqartirish, xalqni hayotdan rozi qilish zarurligini alohida ta'kidlamodqalar. Bu borada mahalla fuqarolar yig'indisi, korxona va tashkilotlarda olib borilayotgan ishlar odamlari behav quvontirmoqda. Joylarda ishga qabul qilishda tartib-qoidalarga amal qilinib, shaffoflik ta'minlanmoqda. Yoshlarning bilim va kasbiy mahorati sinovdan o'tkazil, ular bo'sh ish o'rinalriga ishga qabul qilinmoqda.

Men nafaqadagi sobiq harbiy xizmatchizobitan. Ushbu yozayotgan dil so'zlarim orqali ishga qabul masalasida shaffoflik ta'minlangan tizimni yo'ga qo'ganligi uchun "Navoiyuran" davlat korxonasi, "Zafarobod" kon boshqarmasida o'z kasbiyda bosh hoshladi.

lalar bo'yicha o'rinosari Zafar Hasanov, yuridik va shixmon shaxslar bilan ishslash xizmat boshlig'i Sanjar Gadoyev, avtotransport bo'limi boshlig'i Abdumannon Muhammadjonov, 1-geoteknologik kon boshlig'i Jasur To'raqulov, 1-va 3-geoteknologik konlarning avtotransport uchastkalari boshligilar Maq-sud Mahdiyev, Sanjar Bozorovlarga minnatdorchilik bildiraman.

Hamidulla TOSHEV, Navbahor tumani "Paxtakor" mahallasi.

A.AXMEDOVA.

